

MUALLIFLIK KORPUSINING AHAMIYATI

Muradova Nilufar Baxodir qizi

ToshDO‘TAU Kompyuter lingvistikasi
mutaxassisligi 1-kurs magistranti.

E-mail: nilufarmurodova818@gmail.com

Annotatsiya: Bu maqolada mualliflik korpusining nima ekanligi, undan qanday maqsadlarda foydalanishi, uning ilmiy va amaliy muhimligi haqida bat afsil ma'lumot berilgan. Mualliflik korpusi mualliflarning asarlarini jamlash orqali yaratilgan ma'lumotlar to'plamidir. Ushbu ma'lumotlar to'plami muallifning tildan foydalanish, yozuvchi uslubi, so'z tanlash mahorati kabi xususiyatlarini o'rganish va tahlil qilish uchun foydalaniladi. Aniq misollar orqali, mualliflik korpusining tilshunoslik sohasi va boshqa sohalardagi ahamiyati yoritildi.

Kalit so'zlar: korpus, mualliflik korpusi, lingvistik hodisalar, badiiy o'ziga xoslik, ta'limiylar maqsad.

Annotation: This article provides detailed information about what the author's corpus is, for what purposes it is used, and its scientific and practical importance. An authorship corpus is a collection of data created by compiling the works of authors. This data set is used to study and analyze the characteristics of the author, such as language use, writing style, and word choice skills. Through specific examples, the importance of the author corpus in the field of linguistics and other fields was highlighted.

Keywords: corpus, author's corpus, linguistic phenomena, artistic originality, educational purpose.

Аннотация: В данной статье представлена подробная информация о том, что представляет собой авторский корпус, для каких целей он используется, а также о его научном и практическом значении. Авторский корпус — это совокупность данных, созданная путем компиляции произведений авторов. Этот набор данных используется для изучения и анализа характеристик автора, таких как использование языка, стиль письма и навыки выбора слов. На конкретных примерах была подчеркнута важность авторского корпуса в области языкознания и других областях.

Ключевые слова: корпус, авторский корпус, языковые явления, художественное своеобразие, образовательная цель.

Korpus lingvistikasi jahon kompyuter lingvistikasining juda tez rivojlanib ketayotgan sohasi bo'lib, bu borada ancha yutuqlarga erishilgan. Dunyo oliy ta'lim muassasalarida korpus lingvistikasi fan sifatida ham o'qitiladi. Bu sohaning predmeti korpus yaratish nazariyasi va amaliyoti bo'lsa, fan sifatida korpusning o'ziga xosligi, dasturlash asoslari kabi jihatlari o'qitiladi. Korpus lingvistikasi kompyuter lingvistikasining tarkibiy qismi, til korpusini yaratish, kompyuter texnologiyasi yordamida ulardan foydalanishning umumiyligi nazariyasi va amaliyoti bilan shug'ullanadi [Захаров В. 2005:27].

Mualliflik korpusi - mualliflarning asarlarini jamlash orqali yaratilgan ma'lumotlar to'plami. Ushbu ma'lumotlar to'plami muallifning tildan foydalanish, yozuvchi uslubi, so'z

tanlash mahorati kabi xususiyatlarini o‘rganish va tahlil qilish uchun foydalaniladi. Ular odatda tilshunoslik tadqiqotlari, yozma matn tahlili, tilni qayta ishlash tadqiqotlarda qo‘llaniladi. Ushbu korpuslar odatda har xil turdagи matnlarni o‘z ichiga oladi, masalan, romanlar, maqolalar, she’rlar va boshqalar. Mualliflik korpusi (author corpus) – alohida shaxs ijodiga, mualliflik asarlariga bag‘ishlanuvchi korpus turi. Unda muayyan ijodkorga tegishli asarlarga joy oladi. Mualliflik korpusi bir qancha sohalar uchun ahamiyatli. Jumladan, tilshunoslik, adabiyot va ta’lim sohasida keng foydalanish mumkin.

Mualliflik korpusi bir qator sohalar uchun foydali bo‘lishi mumkin:

1. *Lingvistik ahamiyati*: Tilshunoslar muallifning tildan foydalanishi bo‘yicha tadqiqot o‘tkazishi mumkin. Masalan, ular ma’lum bir davrdagi til o‘zgarishlarini yoki muallifning ijodining o‘ziga xos til xususiyatlarini haqida aniq xulosaga kelishi mumkin.
2. *Badiiy ahamiyati*: Adabiyotshunoslar muallifning ijod uslubini, mavzusini yoki muallif davrining adabiy xususiyatlarini tahlil qilish uchun mualliflik korpusidan foydalanishlari mumkin.
3. *Ta’limiy ahamiyati*: Mualliflik korpusi o‘quvchilarga ma’lum yozuvchi asarlarini o‘rganish va ularning uslublarini tushunishga yordam beradi. Shu bilan birga yozuvchi asarlarining bir saytda yig‘ilgan tayyor elektron kutubxona vazifasini ham bajaradi.
4. *Milliy korpuslar uchun ma’lumotlar bazasi*: Sun’iy intellekt va kompyuterlashtirilgan tilni qayta ishlash sohalarida mashina o‘rganish algoritmlari ushbu korpuslardan katta hajmdagi matn ma’lumotlaridan foydalangan holda til modellarini o‘rgatish uchun foydalanishi mumkin. Ma’lum til korpuslari va milliy korpuslar uchun ham tayyor ma’lumotlar bazasi sifatida foydalanish imkonini beradi. Bu avtomatik matn yaratish va tarjima qilish kabi ilovalarda muhim ahamiyatga ega.
5. *Madaniy xulosalar*: Mualliflik korpusidan ma’lum bir davr yoki madaniyat yozuvlarini o‘rganish orqali o‘sha davr yoki madaniyatning til va adabiy xususiyatlarini tushunish uchun foydalanish mumkin.

Lingvistik ahamiyati

Mualliflik korpusida muallif tilini to‘liq, keng, obyektiv ko‘rsatish imkoniyati bor, shuning uchun bunday korpuslar boshqa axborot bankidan afzalligo bilan ajralib turadi. Bunday korpuslarning afzalligi shundaki, ular yordamida nafaqat biron bir so‘z yoki jumlaning, balki butun boshli asar tilini bilish imkoniyati mavjud [Rahimov A., 2011: 156]. Mualliflik korpuslari tilshunoslikda quyidagi maqsadlarda foydalaniladi.

Tilning o‘zgarishi va rivojlanishi: Til korpusi tilning ma’lum bir davr ichida qanday o‘zgarishi va rivojlanishini kuzatish uchun foydalanish mumkin. Yozuvchilarining turli davrlarda qo‘llagan til xususiyatlarini o‘rganib, til o‘zgarishi haqida xulosa chiqarish mumkin.

So‘zdan foydalanish va chastotasi: Yozuvchi ijodiga xos bo‘lgan so‘zlarini tahlil qilish tilshunoslarga ma’lum so‘zlarning foydalanish chastotasi va semantik o‘zgarishlarini kuzatish imkonini beradi. Bu til taraqqiyoti uchun muhim, chunki ba’zi so‘zlar ma’lum davrda ko‘p istemolda bo‘ladi va ma’lum davrda eskiradi va arxaik yoki tarixiy so‘zga aylanib boradi.

Stilistik tahlillar: Mualliflik korpusi mualliflarning uslublarini va ma’no ko‘chish usulini tekshirish uchun ham ahamiyatlidir. Metafora, kinoya, o‘xshatish kabi stilistik xususiyatlarni tahlil qilish orqali muallifning niyatini, u yetkazmoqchi bo‘lgan fikrni tushunish uchun muhim omil bo‘lib xizmat qiladi.

Dialekt va tilshunoslik: Mualliflik korpusi turli geografik mintaqalar yoki ijtimoiy guruhlarga mansub yozuvchilarning tildan foydalanishini taqqoslash orqali dialekt va til xilmilligini o‘rganish uchun foydalanish mumkin. Bu fikrlar lingvistik nuqtai nazardan mualliflik korpusining bir nechta misolidir. Mualliflik korpusi tilning ko‘p jihatlarini o‘rganish va tushunish uchun qimmatli manba bo‘lib xizmat qiladi.

Zahiriddin Muhammad Bobur mualliflik korpusidan ijodkor so‘z birliklarining lingvistik xususiyatlarini, aynan o‘sha davrda istemolda bo‘lgan so‘zlar lug‘atini, gap qurilishi va so‘z tarkibi kabi lingvistik hodisalarni kuzatish va tahlil qilish imkoniyatini beradi.

Badiiy ahamiyatি

Mualliflik korpusi adabiyot sohasida bir qator muhim maqsadlarga ega:

Muallif ijodini tahlil qilish va asarlarni taqqoslash: Mualliflik korpusi muayyan mualliflarning asarlarini tahlil qilish va turli asarlar orasidagi o‘xshashlik yoki farqlarni aniqlash uchun foydalanish mumkin. Bu muallifning uslubini, mavzularini, xarakter rivojlanishini va hatto vaqt o‘tishi bilan muallif ijodining evolyutsiyasini o‘rganish uchun muhimdir.

Tarixiy va madaniy aloqalarni o‘rganish: Mualliflik korpusidan ma’lum bir davrning adabiy asarlarini birlashtirib, o‘sha davrning tarixiy va madaniy holatini o‘rganish uchun foydalanish mumkin. Bu esa muayyan davrdagi adabiy oqimlar, ijtimoiy-siyosiy voqealar oqibati, madaniy o‘zgarishlarni o‘rganish uchun qimmatli manba bo‘lib xizmat qiladi.

Adabiy tanqid va tahlil: Adabiyotshunoslar mualliflik korpusidan foydalangan holda ma’lum bir muallifning asarlarini chuqur o‘rganishlari mumkin. Bu tahlillar asarlarning mavzui, uslubi, ramziyligi, hikoya qilish texnikasi va boshqa adabiy xususiyatlarini baholash imkonini beradi. Mualliflik korpusi adabiyot sohasida chuqur izlanishlar olib borish va adabiy asarlarni grammatika, uslub va mazmun jihatidan tekshirish imkonini beradi. Shuning uchun mualliflik korpusi adabiyotshunoslikda muhim manba sanaladi. Badiiy matnlarning statistic tahlili natijasida matnda tez-tez qo‘llaniluvchi til birliklari (otlar, sifatlar, kalit so‘zlar, fe’llar, grammatik shakllar, jumla qurilishi, bir so‘z bilan aytganda, yozuvchining uslubi- o‘ziga xos yozish uslubini ko‘rsatuvchi vositalar) lingvostatistik tahlil yordamida aniqlanadi. Turli matnlardan olingen dalillarning qiyosiy tahlili bizga o‘sha matnning mazmun-mundarijasini, matn tuzilgan davrni, dalillarni argumentlash xarakterini va hatto muallifni aniqlashga imkon beradi [Rahimov A., 2011: 154]. Adabiyotshunoslar muallifning ijod uslubini, mavzusini yoki muallif davrining adabiy xususiyatlarini tahlil qilish uchun mualliflik korpusidan foydalanishlari mumkin.

Ta’limiy ahamiyatি

Mualliflik korpusining nisbatan ta’lim sohasidagi ahamiyati ancha yuqori. Negaki maktab o‘quvchilari uchun mavjud korpus tayyor elektron kutubxona vazifasini bajaradi. Shuningdek, ta’lim jarayonida muhim manba sanaladi. O‘quvchi ma’lum bir yozuvchi asarlari bilan tanishni maqsad qilgan bo‘lsa mualliflik korpusidan foydalanish uning vaqtini tejaydi va muallifning ijodiy mersini bilan yaxlit tanishish va foydalanish imkoniyatini beradi. Maktab darsligida Zahiriddin Muhammad Bobur hayoti va ijodi bo‘yicha 2023-2024-o‘quv yili uchun jami 5 soat ajratilgan (1-jadval). Ko‘rstilgan dars soatlarida ham o‘qituvchi, ham o‘quvchi uchun manba bo‘lib xizmat qiladi.



	Dars mavzusi	Sinf	Soat
1	Boburning hayoti va ijodi. Ruboiylari.	5	1
2	Bobur ruboiylarini o‘qish, tahlil qilish	5	1
3	Bobur lirikasi. G‘azallari	11	2
4	Bobur she’riyatida badiiy san’atlar	11	1

1-jadval

Bu maqolada bir nechta sohalarda mualliflik korpusining ahamiyatini o‘rganildi, xalos. Bundan tashqari mualliflik korpusi turli maqsadlarda, jumladan, til va yozuvning turli sohalarida tadqiqot va tahlil qilish uchun qimmatlidir. Ta’kidlash joizki, mualliflik korpuslarining ahamiyati-keng qamrovli bo‘lib, undan bir qancha soha vakillari hamda tarjima dasturlarini ishlab chiqishda foydalanish mumkin. Xulosa qilib aytganda, maqola adabiyotshunoslik va fanlararo tadqiqot ishlarida mualliflik korpusining ahamiyati muhimligini ta’kidlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Ahmedov S., Qosimov B., Qochqorov R., Rizayev Sh. Adabiyot (Darslik). – Toshkent: Sharq, 2020.
2. Hamroyeva Sh. O‘zbek tili mualliflik korpusini tuzishning lingvistik asoslari: Monografiya. Globe edits, 2020.
3. Rahimov A., Kompyuter lingvistikasi asoslari. –Toshkent: Akademnashr, 2011.
4. To‘xliyev B., Karimov B., Usmonova K. Adabiyot (darslik), Toshkent: Davlat ilmiy nashriyoti, 2018.
5. Tursunov U., Muxtorov A., Rahmatullayev Sh. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. –Toshkent: O‘zbekiston, 1992.
6. Xolmanova Z. Kompyuter lingvistikasi. – Toshkent, 2020.